

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus  
son (6-jild)

**2026**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

***№ S/1 (6) – 2026***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

## Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

## Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

### **07.00.00 – TARIX FANLARI**

|                                                                                                                                                                                        |       |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i><br>«НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ»,<br>ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ .....                       | 11-17 |
| <i>Esanova Nilufar</i><br>O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING<br>RIVOJLANISHIDAGI O'RNI .....                                                          | 18-21 |
| <i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i><br>JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK<br>TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI .....                                   | 22-27 |
| <i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i><br>SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI .....                                                                    | 28-33 |
| <i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i><br>THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT<br>HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933..... | 34-43 |
| <i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i><br>ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ<br>ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА<br>(1960-1980 ГГ.).....              | 44-48 |

### **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

|                                                                                                                                                                         |       |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i><br>DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING<br>SAMARADORLIGINI OSHIRISH ..... | 49-56 |
| <i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i><br>AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI<br>EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH .....           | 57-64 |

### **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

|                                                                                                                                                   |       |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Tashanov Abduxoliq</i><br>BUZG'UNCHI G'OYALARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI .....                                                | 65-71 |
| <i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i><br>TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK<br>MASALALARI .....                    | 72-78 |
| <i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i><br>TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....                                                         | 79-84 |
| <i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i><br>RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....                                                    | 85-88 |
| <i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i><br>OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT<br>IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI..... | 89-92 |

|                                                                          |         |
|--------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Matchanova Barno</i>                                                  |         |
| MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI:                                 |         |
| MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....                            | 93-98   |
| <i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i>                                      |         |
| BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI                    |         |
| (Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....         | 99-104  |
| <i>Raxmatov Alisher Obidovich</i>                                        |         |
| IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....         | 105-108 |
| <i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i>                                     |         |
| MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA:        |         |
| O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....                         | 109-115 |
| <i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>                                       |         |
| VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL             |         |
| ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI .....                     | 116-121 |
| <i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i>                                   |         |
| OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT                |         |
| BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....                                     | 122-126 |
| <i>Idiboyev Abror Jamolovich</i>                                         |         |
| JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR           |         |
| HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI .....                                        | 127-130 |
| <i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i>                            |         |
| RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....                             | 131-136 |
| <i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i>                                    |         |
| RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....     | 137-141 |
| <i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i>                              |         |
| HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY             |         |
| ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI .....                                      | 142-146 |
| <b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>                                     |         |
| <i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i>                                 |         |
| INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI .....            | 147-151 |
| <i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i>                                    |         |
| СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ                       |         |
| ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ                                      |         |
| НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....                                           | 152-156 |
| <i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i>                                       |         |
| PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING .....                      | 157-162 |
| <i>Eshmuratov Umidjon Temurovich</i>                                     |         |
| INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI ..... | 163-167 |
| <i>Avlayeva Saida Bozorovna</i>                                          |         |
| INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA               |         |
| SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....           | 168-172 |
| <i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i>                                   |         |
| JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING         |         |
| STRUKTURASI .....                                                        | 173-181 |

|                                                                                                                                                                                                                         |         |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i><br>ASSOTSIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA .....                                                                                                                      | 182-187 |
| <i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i><br>O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA<br>O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI ..... | 188-193 |
| <b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>                                                                                                                                                                                        |         |
| <i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i><br>ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП<br>ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ<br>АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....                  | 194-198 |
| <i>Fayzullayeva Shaxlo Jumaniyoz qizi</i><br>THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN<br>INTERNATIONAL TRADE.....                                                                             | 199-204 |
| <i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i><br>KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY<br>TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI .....                                                                        | 205-212 |
| <i>Uralov Sarbon Sardorovich</i><br>JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI<br>TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI .....                                                     | 213-218 |
| <i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i><br>KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA<br>TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....                                         | 219-225 |
| <i>Dilboboyev Nozimbek</i><br>XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING<br>ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI<br>O'RNI VA AHAMIYATI.....                                | 226-232 |
| <i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i><br>ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING<br>XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI .....                                                                                        | 233-240 |
| <i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i><br>FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI:<br>KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....                                                                                    | 241-243 |
| <i>Абдужанпоров Шахбоз Музаффар ўғли</i><br>НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С<br>ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ<br>МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....                         | 244-253 |
| <i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон угли</i><br>МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ<br>ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ .....                                                                     | 254-259 |
| <i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i><br>ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI .....                                                                                                                     | 260-262 |
| <i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i><br>UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK<br>G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI<br>(O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....                     | 263-269 |

|                                                                                                                                                                                                                          |         |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i><br>JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI<br>KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI .....                                   | 270-276 |
| <i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i><br>PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL<br>E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE .....                                                     | 277-283 |
| <i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i><br>ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ:<br>ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....                                                                  | 284-295 |
| <i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i><br>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY-<br>MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI .....                               | 296-301 |
| <i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i><br>ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО<br>ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ .....                                                          | 302-307 |
| <i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i><br>HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI .....                                                                                                          | 308-312 |
| <i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i><br>SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI:<br>O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK<br>MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH..... | 313-317 |
| <i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i><br>INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI:<br>JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL .....                                                                             | 318-329 |
| <i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i><br>MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....                                                                                                 | 330-337 |
| <i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i><br>LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING<br>THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN<br>SECTOR OF UZBEKISTAN .....                    | 338-343 |
| <i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i><br>MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH,<br>MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....                                                   | 344-349 |
| <i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i><br>OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI<br>VA ULARNING OLDINI OLISH.....                                                          | 350-354 |
| <i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i><br>HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI<br>UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI .....                                                                         | 355-362 |
| <i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i><br>O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....                                                                                                             | 363-366 |

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

|                                                                                                                                                                                   |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi<br>BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV<br>KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH .....           | 367-371 |
| <i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i><br>KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO<br>KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA..... | 372-380 |
| <i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i><br>ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ<br>В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....                     | 381-387 |
| <i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i><br>5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI<br>O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....       | 388-393 |
| <i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i><br>THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS<br>WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS .....                                      | 394-400 |

**Received:** 03 January 2026  
**Accepted:** 17 January 2026  
**Published:** 30 January 2026

*Article / Original Paper*

## **MODERN THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF THE RULE OF LAW**

**Lutfullayeva Feruza Boboqulovna**

Lecturer of Law at the Academic Lyceum named after  
M.S.Vosiqova under the Tashkent State University of Law,  
Independent Researcher

**Abstract.** The article analyzes modern theoretical approaches to the concept of the rule of law. Classical philosophical and legal foundations, as well as liberal-legal, normativist, sociological-communicative, and global approaches, are examined. Based on the ideas of John Rawls, Friedrich Hayek, Robert Alexy, Joseph Raz, Jürgen Habermas, and David Held, the study reveals the relationship between the rule of law and principles of justice, individual freedom, supremacy of law, accountability of power, and global legal integration. Particular attention is paid to the contemporary interpretation of the rule of law in Uzbekistan.

**Keywords:** rule of law, supremacy of law, justice, human rights, accountability of power, civil society, global law.

## **HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI**

**Lutfullayeva Feruza Boboqulovna**

TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning huquq fani o'qituvchisi,  
Mustaqil tadqiqotchi  
E-mail: [lutfullayeva578@gmail.com](mailto:lutfullayeva578@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada huquqiy davlat konsepsiyasining zamonaviy nazariy yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda huquqiy davlat tushunchasining klassik falsafiy-huquqiy asoslari hamda liberal-huquqiy, normativistik, sotsiologik-kommunikativ va global yondashuvlar ilmiy jihatdan yoritilgan. John Rawls, Friedrich Hayek, Robert Alexy, Joseph Raz, Jürgen Habermas va David Held qarashlari asosida huquqiy davlatning adolat, shaxs erkinligi, qonun ustuvorligi, hokimiyatning javobgarligi va global huquqiy integratsiya bilan bog'liqligi ochib berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda huquqiy davlat konsepsiyasining zamonaviy talqini inson huquqlari ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari bilan bog'liq holda tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** huquqiy davlat, qonun ustuvorligi, adolat, inson huquqlari, hokimiyat javobgarligi, fuqarolik jamiyati, global huquq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N49>

XXI asrda huquqiy davlat (Rechtsstaat, Rule of Law) konsepsiyasi nafaqat konstitutsiyaviy boshqaruv tamoyili, balki global huquqiy tartibning markaziy paradigmasi sifatida qaralmoqda. Bugungi huquqiy tafakkurda huquqiy davlat tushunchasi an'anaviy – klassik nazariyadan (Kant, Monteskye, Lokk) farqli ravishda, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy adolat va xalqaro huquqiy integratsiya g'oyalari bilan boyitilgan.

### 1. Liberal-huquqiy yondashuv

Liberal an'anaga ko'ra, huquqiy davlatning markazida shaxs erkinligi va hokimiyatning cheklanishi turadi. Bu yondashuv Jon Rols, Fridrix Hayek, Ronald Dvorkin kabi zamonaviy faylasuflar tomonidan rivojlantirilgan.

Zamonaviy huquqiy davlat nazariyalarida shaxs erkinligi va qonun ustuvorligidan tashqari, adolat, tenglik va ijtimoiy muvozanat tamoyillari ham markaziy ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, amerikalik faylasuf Jon Rols huquqiy davlatni adolatga asoslangan ijtimoiy tizim sifatida talqin qiladi va ijtimoiy institutlarning asosiy fazilati adolat ekanligini ta'kidlaydi, xuddi fikrlash tizimlaridagi haqiqat kabi. Rolsning nazariyasiga ko'ra, huquqiy davlat faqat qonuniylikni ta'minlab qolmasdan, jamiyatdagi tenglikni va resurslarning muvozanatli taqsimlanishini ham nazorat qilishi kerak, shuningdek, fuqarolar o'rtasidagi nizolarni adolatli va shaffof mexanizmlar orqali hal qilish imkonini beradi. Shu tarzda, huquqiy davlat nafaqat konstitutsiyaviy tartibni, balki fuqarolarning huquqlari va ijtimoiy manfaatlarini muvozanatlaydigan kompleks tizim sifatida talqin qilinadi, bu yondashuv esa zamonaviy demokratik davlat konsepsiyasining ilmiy asosini tashkil etadi. [4; B.360.].

Zamonaviy huquqiy davlat nazariyalarida iqtisodiy erkinlik masalasi ham muhim o'rin tutadi. Avstriyalik faylasuf va iqtisodchi Fridrix Hayek o'zining "*Erkinlik konstitutsiyasi*" (*The Constitution of Liberty*, 1960) asarida huquqiy davlatni iqtisodiy erkinlik bilan bog'laydi. Hayek fikricha, qonun oldida tenglik va shaxsiy tashabbus erkinligi huquqiy davlatning eng muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. U ta'kidlaydiki, huquq hukmron bo'lgan davlat hech qachon ixtiyoriy hokimiyat quroliga aylana olmaydi, ya'ni hokimiyatning shaxsiy yoki guruh manfaatlariga bo'ysunish xavfi mavjud emas.

Shu nuqtai nazardan, huquqiy davlat nafaqat siyosiy va huquqiy barqarorlikni, balki ijtimoiy va iqtisodiy erkinliklarni ham ta'minlovchi institut sifatida talqin qilinadi. Hayekning yondashuvi shuni ko'rsatadiki, huquqiy davlatni shakllantirishda faqat qonuniylik yetarli emas; u shuningdek shaxslarning erkinligini, iqtisodiy faoliyatdagi teng imkoniyatlarni va jamiyatdagi adolatni ham kafolatlashi lozim. [6; B.314.].

### 2. Normativistik yondashuv

Huquqiy davlatning normativistik talqini Hans Kelsenning "sof huquq nazariyasi"dan kelib chiqadi. Kelsencha, davlat huquqiy tizim sifatida mavjud bo'ladi, demak, huquq ustuvorligi – davlatning o'zini saqlash sharti. Bugungi kunda bu yondashuv *Robert Alexy* (Germaniya) va *Joseph Raz* (Buyuk Britaniya) tomonidan rivojlantirilgan.

Zamonaviy huquqiy davlat nazariyalarida huquqiy tizimni faqat formal me'yorlar to'plami sifatida emas, balki axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq normativ tizim sifatida talqin qilish muhim o'rin egallaydi. Nemis huquqshunosi Robert Aleksi o'zining "*Konstitutsiyaviy huquqlar nazariyasi*" asarida huquq hukmronligi konsepsiyasini aynan shu nuqtai nazardan tushuntiradi. Aleksi fikricha, huquq hukmronligi g'oyasi — bu huquqiy tartibni axloqiylashtirishga urinishdir. Shu yondashuv huquqiy davlatni nafaqat qonuniylikni ta'minlovchi institut, balki ijtimoiy adolat va axloqiy prinsiplar asosida shakllangan tizim sifatida tushunishga imkon beradi. [3; B.246.].

Aleksi ta'kidlaydiki, qonunlar faqat qog'ozda qolmasligi, balki jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar va huquqiy adolat bilan uyg'unlashishi lozim. Shu nuqtai nazardan, huquqiy davlat tamoyillari shaxs erkinligi, tenglik, hokimiyatlarning bo'linishi va qonun ustuvorligi bilan birgalikda axloqiy va ijtimoiy majburiyatlarni ham qamrab oladi. Bu yondashuv zamonaviy

konstitutsiyaviy tizimlarda huquqiy barqarorlikni ta'minlash va jamiyatda adolatni mustahkamlashning asosiy ilmiy poydevorini tashkil qiladi. [1; B.450.].

Zamonaviy huquqiy davlat nazariyalarida hokimiyatning institutsional javobgarligi va ixtiyoriy hukmronlikning oldini olish markaziy ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, ingliz huquqshunosi Jozeff Raz huquq hukmronligini hokimiyatni cheklash va ixtiyoriy qarorlar xavfini minimallashtirish vositasi sifatida talqin qiladi. U o'zining "*Huquq hukmronligi va uning fazilatlari*" maqolasida ta'kidlaydiki, huquq hukmronligi ixtiyoriy hokimiyat xavfini kamaytirishga qaratilgan bo'lib, davlat organlari va mansabdor shaxslar o'z faoliyatida qonuniy me'yorlarga bo'ysunishi lozim. [2; B.117.].

Shu yondashuv huquqiy davlatni nafaqat qonuniylikni ta'minlovchi, balki hokimiyatning javobgarligini va fuqarolar huquqlarini kafolatlashi lozim bo'lgan institutsional tizim sifatida tushunishga imkon beradi.

Razning yondashuvi shuni ko'rsatadiki, huquqiy davlat faqat hokimiyatning bo'linishi va qonun ustuvorligini ta'minlash bilan cheklanmaydi, balki davlat institutlarining o'z faoliyati uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishi va harakatlarining qonuniyligiga sud nazoratini o'rnatishi ham zarur. Shu tariqa, huquqiy davlatning barqarorligi va shaxs huquqlarining himoyasi ixtiyoriy qarorlar xavfini cheklash bilan mustahkamlanadi.

### 3. Sotsiologik va kommunikativ yondashuv

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Yurgen Habermas va boshqa zamonaviy faylasuflar huquqiy davlatni "kommunikativ faoliyat nazariyasi" orqali tahlil qilishdi. Habermasga ko'ra, huquqiy davlat — bu ijtimoiy muloqot va kelishuv asosida shakllanadigan tizim, ya'ni huquq – ijtimoiy kommunikatsiyaning shakli.

Zamonaviy huquqiy davlat nazariyalarida qonuniylik nafaqat me'yoriy normativlar bilan, balki jamiyatning axloqiy va ijtimoiy roziligi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, nemis faylasufi Y. Habermas o'zining "*Between Facts and Norms*" asarida qonuniylikni fuqarolar orasidagi oqilona diskurs orqali tasdiqlanishi bilan bog'laydi. U ta'kidlaydiki, qonuniy deb faqat barcha fuqarolar oqilona muloqotda kelishib qabul qilgan qonunlar hisoblanadi.

Habermas nazariyasi huquqiy davlatni shaffof, demokratik va fuqarolar ishtirokidagi ijtimoiy institutlar orqali shakllangan tizim sifatida tushuntiradi. Shu yondashuvga ko'ra, qonunlar faqat hokimiyatning buyruqlari emas, balki jamiyat a'zolarining axloqiy va ratsional roziligi bilan qo'llab-quvvatlangan me'yorlar bo'lishi kerak. Bu tamoyil huquqiy davlatda fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligini rag'batlantiradi, hokimiyatning ixtiyoriy qarorlar xavfini kamaytiradi va jamiyatda adolat hamda huquqiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Demak, zamonaviy yondashuvga ko'ra, huquqiy davlat — bu faqat qonuniylik tizimi emas, balki ijtimoiy ishtirok, axloqiy muloqot va demokratik konsensusga asoslangan huquqiy tartibdir.

### 4. Postmodern va global yondashuvlar

Bugungi kunda huquqiy davlat konsepsiyasi global boshqaruv, inson huquqlari, raqamli jamiyat va ekologik xavfsizlik kabi yangi sohalar bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinmoqda.

Masalan, Devid Held o'zining *Global Covenant* asarida "global huquqiy davlat" konsepsiyasini ilgari suradi. Held fikricha, XXI asrda huquqiy davlat milliy chegaralardan tashqariga chiqib, transmilliy adolat, xalqaro javobgarlik va global huquqiy me'yorlarni o'z ichiga olishi lozim. Bu yondashuv, huquqiy davlat nazariyasini faqat milliy hukumatlar darajasida emas, balki global siyosiy va huquqiy tizimlarda ham tatbiq etish zaruratini

ko'rsatadi. Shunday qilib, huquqiy davlat nafaqat milliy, balki xalqaro hamjamiyatdagi adolat va shaffoflikni ta'minlovchi institut sifatida talqin qilinadi. [5; B.118.].

O'zbekistonda huquqiy davlatning zamonaviy talqini nafaqat qonun ustuvorligini, balki inson huquqlarini ustuvor deb bilish, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash, sud mustaqilligini ta'minlash va raqamli boshqaruvni joriy etish orqali namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyev o'zining *Yangi O'zbekiston strategiyasi* asarida ta'kidlaydiki, huquq ustuvorligi va inson qadr-qimmati yangi O'zbekistonning asosiy g'oyaviy tayanchlaridir.

Bu yondashuv huquqiy davlatni nafaqat normativ va institutsional tizim sifatida, balki jamiyatdagi shaffoflik, adolat va fuqarolarning asosiy huquqlarini himoya qiluvchi kompleks tizim sifatida talqin qilishga imkon beradi. Shu tariqa, O'zbekiston tajribasi zamonaviy huquqiy davlat kontsepsiyasining demokratik, insonparvar va texnologik jihatdan rivojlangan modelini namoyish etadi.

Zamonaviy huquqiy davlat nazariyalari bir qator umumiy xususiyatlar bilan ajralib turadi. Birinchidan, huquqning axloqiy va ijtimoiy tabiatini e'tirof etish muhim omil hisoblanadi. Masalan, Robert Alexy huquqni faqat formal tizim sifatida emas, balki axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liq normativ tizim sifatida talqin qiladi, shuningdek, Jürgen Habermas qonuniylilikni fuqarolar orasidagi oqilona diskurs orqali shakllanishi bilan bog'laydi.

Ikkinchidan, zamonaviy nazariyalar shaxs erkinligi va ijtimoiy adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'kidlaydi. Jon Rolsning fikricha, huquqiy davlat qonuniylikdan tashqari adolat, tenglik va ijtimoiy muvozanatni ham ta'minlashi lozim.

Uchinchidan, hokimiyatning javobgarligi va shaffofligi tamoyili huquqiy davlatning barqarorligi va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda markaziy ahamiyatga ega. Joseph Raz va Ronald Dworkin bu tamoyilni hokimiyatning ixtiyoriy qarorlar xavfini kamaytirish va sud nazorati orqali amalga oshirish bilan bog'laydi.

Shuningdek, zamonaviy talqinlarda global miqyosdagi huquqiy integratsiya ham e'tiborga olinadi, bu davlatlarning xalqaro normativ me'yorlar va huquqiy standartlarga bo'ysunishini ta'minlaydi.

Nihoyat, O'zbekistonda huquqiy davlat konsepsiyasi fuqarolik ishtiroki va raqamli boshqaruvning huquqiy asoslari bilan mustahkamlanadi. Prezident Sh. M. Mirziyoyevning ta'kidlashicha, huquq ustuvorligi va inson qadr-qimmati yangi O'zbekistonning asosiy g'oyaviy tayanchlaridir.

Shunday qilib, zamonaviy huquqiy davlat nazariyalari nafaqat qonuniylilik va hokimiyat bo'linishini, balki ijtimoiy adolat, shaxs erkinligi, fuqarolik ishtiroki va axloqiy prinsiplarni ham birlashtiruvchi kompleks tizim sifatida shakllangan.

**Xulosa.** Maqolada huquqiy davlat nazariyasining nazariy-huquqiy asoslari, uning tarixiy-falsafiy ildizlari, klassik tamoyillari va zamonaviy yondashuvlari batafsil tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, huquqiy davlat konsepsiyasi insoniyat fikr tarixi davomida shakllangan muhim falsafiy va huquqiy tamoyillarga tayangan. Antik davr falsafasida Aristotel va Platon tomonidan ilgari surilgan "qonun hukmronligi" g'oyasi, Rim huquqi va tsitseron tafakkuri orqali tizimlashtirilib, keyinchalik O'rta asrda tabiiy huquq maktablari tomonidan rivojlantirildi. Sharqiy va g'arbiy falsafiy an'analar, jumladan, Hindiston, Xitoy va Yevropa maktablarida qonun va axloqiy prinsiplarning uyg'unligi huquqiy davlatning konseptual poydevorini tashkil etdi.

Klassik davrda huquqiy davlat nazariyasining shakllanishida John Lokk, Monteskye, Immanuel Kant, A. V. Daisi va Robert von Mohl kabi olimlarning hissasi muhim bo'ldi. Ularning ilmiy izlanishlari hokimiyatning cheklanishi, qonunning ustuvorligi, sud mustaqilligi va shaxs erkinligi kabi asosiy tamoyillarni nazariy jihatdan mustahkamladi. Ayniqsa, Daisi nazariyasi huquqiy davlatning uch asosiy poydevorini belgilab, ularni milliy va keyinchalik xalqaro huquq tizimida qo'llash imkonini berdi.

Zamonaviy yondashuvlar esa huquqiy davlat tushunchasini kengaytirib, uni axloqiy, ijtimoiy va iqtisodiy tamoyillar bilan bog'lashga e'tibor qaratadi. Robert Aleksi, Joseph Raz, John Rawls, Fridrix Hayek va Devid Held kabi olimlar huquqiy davlatni nafaqat qonuniylikni ta'minlovchi institut, balki adolat, shaffoflik, shaxs erkinligi, iqtisodiy erkinlik va xalqaro javobgarlikni amalga oshiruvchi tizim sifatida talqin qiladilar. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida huquqiy davlat zamonaviy talqinida inson huquqlari ustuvorligi, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash, sud mustaqilligi va raqamli boshqaruvni joriy etish asosiy yo'nalishlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, maqolada tahlil qilingan nazariy manbalar va ilmiy tadqiqotlar huquqiy davlatning nazariy-huquqiy poydevorini shakllantirganini ko'rsatadi. U klassik va zamonaviy tamoyillarni uyg'unlashtirgan holda, fuqarolar erkinligini himoya qiluvchi, hokimiyatning javobgarligini ta'minlovchi va milliy hamda xalqaro kontekstda tatbiq etiladigan tizim sifatida konseptual asosini belgilaydi. Shu jihatdan, huquqiy davlat nazariyasi nafaqat tarixiy va falsafiy ahamiyatga ega, balki amaliy boshqaruv va huquqni rivojlantirish strategiyalarining nazariy asosini ham tashkil etadi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Alexy, R. The Argument from Injustice: A Reply to Legal Positivism. — Oxford: Clarendon Press, 2002. — 450 -b.
2. Jozeff Raz, Huquq hukmronligi va uning fazilatlar, 1977. – 117-b.
3. Robert Aleksi, Konstitutsiyaviy huquqlar nazariyasi, 1985. – 246-b.
4. Rawls, J. A Theory of Justice. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1971. — 360-b
5. Devid Held, Global Covenant, 2004. – 118-b.
6. Hayek, F. A. The Road to Serfdom. — Chicago: University of Chicago Press, 1944. — 314-b.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/1 (6) – 2026*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).